# II. SANOAT

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 28 778,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 103,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (97,6 %)ni tashkil etdi.

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha**
**sanoat ishlab chiqarish hajmi,** *mlrd so‘m*







B - Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,

C - Ishlab chiqaradigan sanoat,

D - Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,

E - Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha**
**sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da**







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 4,4 % ga o‘sishi, Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda 57,1 % ga kamayishi kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 41,0 % ga va Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning 53,9 % o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % *da*

mlrd so‘m




*FHI, % da*




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 466,8 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*

***Ulushi,*** *% da*




***FHI, % da***



## Ishlab chiqaradigan sanoat







2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28 089,7 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,6 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % *da*







### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2023- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 204189 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilib (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 10,7 % ga kamaygan), 9,1 ming tonna neft (13,2 %), kamayish sur’atlari kuzatildi. 4 760,0 tonna Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (77,4 %) kamayish, 4 596 ming. litr 80 % dan etilspirti (0,3 %) kamayish kuzatildi.

## O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % *da*

### Yengil avtomobillar




### Yumshoq bug‘doy va spelta uni




### Aroq




### O‘simlik yog‘i (tozalangan)




### Uzum vinosi




### Paxtadan yigirilgan ip




### 80,0 % dan kam bo‘lmagan etil spirti




### Alyuminidan elektr izolyatsiyasiz o‘ralgan sim




### Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar,to‘rlar




### Neft




### Paxta chigiti




### Paxta tolasi




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2023- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yengil avtomobillar,** *dona* | **204 189,0** | **228 720,0** | -24 531 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** *tonna* | 18 549,3 | 23 028,3 | -4 479,0 |
| **Aroq,** *ming litr* | 0 | 0 | 0 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming t.* | 24 748,3 | 75 653,0 | -50 904,7 |
| **Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi,** *tonna* | 25 020,4 | 20 534,6 | 4 485,8 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalanmagan),** *t* | - | 2 151,0 | -2 151,0 |

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar 10,7 % ga kamaydi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 98 916 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,1 %), 4 112 dona “Nexia T-250” (16,3 %), 74 168 dona “Lacetti-Gentra” (82,7 %), 700 dona “Spark” (4,6 %) 11 222 dona “Onix” avtomobillari ishlab chiqarildi.

**Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati**
*(2023- yilning yanvar-iyun oylarida, dona)*




**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash**
*(2023- yilning yanvar-iyun oylarida)*



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 144,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 57,1 % ga kamayishi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %** *da*
*(yanvar-iyun oylarida)*




**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2023- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln kvt/s* | 319,6 | 390,0 | -70,5 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 0,4 | 6,7 | -6,3 |
| **Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar,** mlrd so‘m | - | 208,0 | - 208,0 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 78,0 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2023- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd so‘m* | 57,2 | 31,6 | 25,6 |
| **Oqava suvlarni shlami,** *mlrd so‘m* | 9,9 | 9,4 | 0,5 |

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 20 638,0 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,3 % ga,va uning jami sanoatdagi ulushi 97,6 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to‘g‘ri kelib, 76,7 % ni, shuningdek, Xo‘jaobod tumanida 4,0 % ni, Andijon shahariga 3,4 % ni, Shahrixon tumani 2,4 % ni, hamda Andijon tumani 1,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat (1,3 %) ga o‘sgan. Yuqori darajada o‘sish ko‘rsatkichi Qo‘rg‘ontepa (195,6), Ulug‘nor (153,5 %), Oltinko‘l (130,7 %), Baliqchi (123,7 %), Buloqboshi (118,4 %), tumanlarida hamda Asaka tumanida (118,1 %) ni qayd etildi.

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2023- yilning yanvar-iyun oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 253,0 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 7,8 % ni tashkil etdi.

# Andijon viloyati hududlari bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2023- yilning yanvar-iyun oylarida*

| | Mlrd so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 20 638,0 | 100,0 | 101,3 |
| Andijon shahar | 708,2 | 3,4 | 89,4 |
| Xonobod shahar | 164,0 | 0,8 | 108,7 |
| Andijon | 363,7 | 1,8 | 111,8 |
| Asaka | 15 829,7 | 76,7 | 118,1 |
| Baliqchi | 179,0 | 0,9 | 123,7 |
| Buloqboshi | 214,9 | 1,0 | 118,4 |
| Bo‘ston | 108,8 | 0,5 | 108,1 |
| Jalaquduq | 655,9 | 2,3 | 105,8 |
| Izboskan | 436,7 | 1,5 | 101,9 |
| Ulug‘nor | 312,7 | 1,5 | 96,9 |
| Marhamat | 188,0 | 0,9 | 95,1 |
| Oltinko‘l | 321,5 | 1,6 | 130,7 |
| Paxtaobod | 210,8 | 1,0 | 46,4 |
| Xo‘jaobod | 820,4 | 4,0 | 102,5 |
| Shahrixon | 485,0 | 2,4 | 93,1 |
| Qo‘rg‘ontepa | 344,0 | 1,7 | 195,6 |

# Andijon viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2023- yilning yanvar-iyun oylarida*

| Hudud | Mlrd so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 28 778,7 | 100,0 | 103,5 |
| Andijon shahar | 4 069,1 | 14,1 | 101,5 |
| Xonobod shahar | 1 195,2 | 4,2 | 101,7 |
| Andijon | 612,0 | 2,1 | 110,3 |
| Asaka | 16 457,9 | 57,2 | 100,7 |
| Baliqchi | 850,9 | 3,0 | 103,3 |
| Buloqboshi | 241,3 | 0,8 | 105,4 |
| Bo‘ston | 215,8 | 0,7 | 103,0 |
| Jalaquduq | 655,9 | 2,3 | 105,8 |
| Izboskan | 436,7 | 1,5 | 101,9 |
| Ulug‘nor | 249,7 | 0,9 | 107,1 |
| Marhamat | 358,7 | 1,2 | 103,6 |
| Oltinko‘l | 468,3 | 1,6 | 103,1 |
| Paxtaobod | 420,9 | 1,5 | 86,1 |
| Xo‘jaobod | 950,3 | 3,3 | 100,7 |
| Shahrixon | 831,9 | 2,9 | 107,5 |
| Qo‘rg‘ontepa | 764,2 | 2,7 | 98,2 |

**Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati,** % *da*




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Andijon t (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,3 %), Shahrixon (107,5 %), Ulug'nor (107,1 %), Jalaquduq (105,8 %) Buloqboshi (105,4 %), Marhamat (103,6 %) Baliqchi (103,3 %), tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

## Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % *da*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Asaka tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 57,2 % ni) hamda Andijon shaharida (14,1 %), Xonobod (4,2 %), Xo‘jaobod (3,3 %), Baliqchi (3,0 %) va Shahrixon (2,9 %) shahar va tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Ulug‘nor (0,9 %), Buloqboshi (0,8 %) hamda Bo‘ston (0,7 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (47 146,9 ming so‘m), Xonobod (26 423,3 ming so‘m) va Andijon shahrida (8 640,4 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (8 620,4 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 6 181,9 ming so‘m bo‘lgan holda, Asaka tumanida 45 347,4 ming so‘mni, Xo‘jaobod tumanida 6 959,7 ming so‘mni, Xonobod shahrida 3 624,8 ming so‘mni, Ulug‘nor tumanida 2 007,2 ming so‘mni, Oltinko‘l tumanida 1 693,3 so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2023- yilning yanvar-iyun oylarida, ming so‘m)*

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | 8 620,4 | 6 181,9 |
| **Andijon sh.** | 4 069,1 | 708,2 |
| **Xonobod sh.** | 1 195,2 | 164,0 |
| **Andijon** | 612,0 | 363,7 |
| **Asaka** | 16 457,9 | 15 829,7 |
| **Baliqchi** | 850,9 | 179,0 |
| **Buloqboshi** | 241,3 | 214,9 |
| **Bo‘ston** | 215,8 | 108,8 |
| **Jalaquduq** | 655,9 | 312,7 |
| **Izboskan** | 436,7 | 260,4 |
| **Ulug‘nor** | 249,7 | 126,9 |
| **Marhamat** | 358,7 | 188,0 |
| **Oltinko‘l** | 468,3 | 321,5 |
| **Paxtaobod** | 420,9 | 210,8 |
| **Xo‘jaobod** | 950,3 | 820,4 |
| **Shahrixon** | 831,9 | 485,0 |
| **Qo‘rg‘ontepa** | 764,2 | 344,0 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*(2023- yilning yanvar-iyun oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 708,4 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %) Izboskan tumani (100 %), Shahrixon tumani (88,9 %), Andijon tumani (87,5 %), hamda Baliqchi tumani (77,1 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Xonobod shahar (34,8 %), Andijon shahar (27,8 %) va Asaka tumanida (1,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
*(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 5 513 dona sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 450 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 26,3 foizi) Andijon shahriga, 589 tasi (10,7 %) Andijon tumaniga, 489 tasi (8,9 %) Asaka tumaniga, 421 tasi (7,6 %) Xo‘jaobod tumaniga, 402 tasi (7,3 %) Shahrixon tumaniga, 273 tasi (5,0 %) Baliqchi tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.




2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 489 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 86 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 17,6 %) Andijon shaharda, 85 tasi (17,4 %) Andijon tumanida, 40 tasi (8,2 %) Asaka tumanida, 34 tasi (7,0 %) Qo‘rg‘ontepa tumanida, 30 tasi (6,1 %) Oltinko‘l tumanida tashkil etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari**

*(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida Andijon shahrida (1 450 ta), Andijon tumani (589 ta), Asaka tumani (489 ta), Xo‘jaobod tumani (421 ta), Shahrixon tumani (402 ta), Baliqchi tumani (273 ta), Oltinko‘l tumani (253 ta) hamda Marhamat tumanlari (240 ta) qayd etildi.







2023- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida esa Qo‘rg‘ontepa tumani (235 ta), Jalolquduq tumani (233 ta), Izboskan tumani (213 ta), Paxtaobod tumani (206 ta), Buloqboshi tumani (195 ta), Bo‘ston tumani (117 ta) va Xonobod shahrida tumanida (99 ta) hamda Ulug‘nor tumanlarida (98 ta) faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar qayd etildi.

## STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘linmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

**Sanoat ishlab chiqarishda o‘zgarish indekslari** – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir; Iste’mol mollari – asosan shaxsiy iste’mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

**Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi** – boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni yalpi mahsulot;

**Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlash** Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

**Mahalliylashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

**Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati** – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda to‘ldiriladi.